

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA IJOBIY HIS-TUYG‘ULARNI IFODALOVCHI KONSEPTLARNING NAZARIY ASOSLARI

Andijon davlat chet tillari instituti

Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik yo'nalishi 1-kurs magistranti

Sodiqova Muazzamxon Sanjarbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik doirasida ijobiy his tuyg‘ularni ifodalovchi konseptlarning o‘rganilish darajasi tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillarida emotsional konseptlar bo‘yicha olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar umumlashtiriladi. Mavjud ilmiy ishlarda yoritilgan masalalar, yondashuvlar hamda kam tadqiq etilgan jihatlar aniqlanib, qiyosiy-lingvomadaniy tadqiqotlarning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: konsept, ijobiy his-tuyg‘u, emotsional konsept, lingvomadaniyat, kognitiv tilshunoslik, qiyosiy tahlil.

Аннотация: В статье анализируется степень изученности концептов, выражающих положительные эмоции, в рамках лингвокультурологии и когнитивной лингвистики. Обобщаются научные исследования, посвящённые эмоциональным концептам в английском и узбекском языках. Выявляются недостаточно изученные аспекты и обосновывается актуальность сравнительно-лингвокультурного исследования.

Ключевые слова: концепт, положительные эмоции, эмоциональный концепт, лингвокультура, когнитивная лингвистика, сравнительный анализ.

Zamonaviy tilshunoslik paradigmasida til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni tadqiq etish muhim va dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Til nafaqat kommunikativ vosita, balki muayyan xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, milliy mentaliteti va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizim hisoblanadi. Shu jihatdan qaralganda, til birliklari orqali ifodalanadigan ma’no va mazmunlar bevosita madaniy kontekst bilan bog‘liq bo‘lib, ular jamiyat a’zolarining borliqni idrok etish usullarini namoyon etadi. Ayniqsa, insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va emotsional tajribasini ifodalovchi lisoniy birliklar til va madaniyat munosabatlarini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Emotsional konseptlar, xususan, ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi birliklar milliy tafakkur, axloqiy-me’yoriy qarashlar hamda madaniy qadriyatlarning til orqali namoyon bo‘lishida muhim indikator vazifasini bajaradi. Har bir tilda quvonch, baxt, mamnunlik, mehr, umid kabi ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi leksik va frazeologik birliklarning mavjudligi va ularning qo‘llanish xususiyatlari shu til sohiblarining emotsional dunyoqarashi hamda madaniy ustuvorliklarini aks ettiradi. Mazkur nuqtayi nazardan, ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi konseptlarning o‘rganilish darajasini aniqlash ingliz va o‘zbek tillari materialida qiyosiy-lingvokulturologik jihatdan muhim ilmiy masala hisoblanadi. Bu konseptlarning semantik tarkibi, kognitiv modeli va pragmatik qo‘llanish xususiyatlarini tahlil qilish orqali ikki tilga

mansub madaniy makonlarda ijobiy emotsiyalarning qanday talqin qilinishi, baholanishi va lisoniy shakllarda ifodalanishi aniqlanadi. Natijada, nafaqat tillararo umumiylik va farqlar ochib beriladi, balki ingliz va o'zbek xalqlarining madaniy-mental xususiyatlari ham chuqurroq anglanadi. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikning kognitiv, lingvokulturologik va pragmatik yondashuvlarini boyitishga xizmat qiladi.

Конспект и эмоциональные концепты: научные основы

Конспект тushunchasi kognitiv tilshunoslik doirasida inson ongida shakllangan bilim, tajriba va tasavvurlarning tizimli majmui sifatida talqin etilib, ularning til vositalari orqali modellashtirilishi va ifodalanishini anglatadi. Конспект insonning borliqni idrok etishi, uni tasniflashi va baholash jarayonida muhim kognitiv birlik bo'lib, tafakkur mahsuli sifatida til bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu bois, konsept tilshunoslik, psixologiya, falsafa va madaniyatshunoslik fanlari kesishgan nuqtada tadqiq etiladigan murakkab ilmiy hodisa hisoblanadi. G'arb va rus tilshunosligida konsept muammosi keng qamrovda o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda G. Lakoff va R. Langackerning kognitiv grammatika hamda metaforik tafakkur haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega. Ular konseptlarni inson tajribasiga asoslangan kognitiv tuzilmalar sifatida izohlaydi. Rus tilshunosligida esa Yu.S. Stepanov konseptni madaniyatning asosiy birliklaridan biri sifatida talqin qilib, uni tarixiy, ijtimoiy va aksiologik qatlamlarga ajratadi. V.I. Karasik konseptni lingvokulturologik birlik sifatida baholab, uning semantik, obrazli va baholovchi komponentlarini ajratib ko'rsatadi. A. Vejbitskaya esa tabiiy semantik metatil (NSM) nazariyasi orqali konseptlarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratadi. Mazkur olimlar tadqiqotlarida konsept til, tafakkur va madaniyatning o'zaro kesishgan nuqtasi sifatida talqin qilinadi. konseptlar esa kognitiv tilshunoslikda insonning his-tuyg'ulari va emotsional tajribasining til birliklarida aks etishini o'rganishga qaratilgan alohida tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi. Bunday konseptlar orqali emotsiyalarning lisoniy ifodasi, semantik tuzilishi va pragmatik qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqotlarda emotsiyalarning universal jihatlari bilan bir qatorda, ularning milliy-madaniy xususiyatlari ham farqlanadi. Shu asosda ijobiy va salbiy his-tuyg'ular alohida konseptual birliklar sifatida ko'rib chiqilib, ularning til va madaniyatdagi o'rni, baholovchi xususiyati hamda kognitiv modeli aniqlanadi. Bu esa emotsional konseptlarni qiyosiy va lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Иंगлиз тилида ijobiy his-tuyg'ular konseptlarining o'rganilishi

Иंगлиз tilshunosligida happiness, joy, love, pleasure, hope kabi ijobiy his-tuyg'ularni ifodalovchi konseptlar kognitiv-semantik va konseptual-metaforik yondashuvlar asosida keng tadqiq etilgan. Xususan, G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasi doirasida ijobiy emotsiyalarning lisoniy ifodasi inson tajribasi va idroki bilan chambarchas bog'liq holda izohlanadi. Tadqiqotlarda mazkur konseptlarning semantik tuzilishi, obrazli komponentlari hamda baholovchi xususiyatlari tahlil qilinib, ularning til tizimidagi o'rni aniqlanadi. Ilmiy ishlarda ijobiy emotsiyalarning konseptual metaforalar orqali ifodalanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ingliz tilida happiness va joy konseptlari ko'pincha HAPPINESS IS UP, HAPPINESS IS LIGHT, JOY IS A CONTAINER kabi metaforik modellarda namoyon bo'lib, bu holat emotsional tajribaning fazoviy va jismoniy obrazlar orqali idrok etilishini ko'rsatadi. Love konsepti esa LOVE IS A JOURNEY, LOVE IS

UNITY, LOVE IS A FORCE kabi metaforalar orqali talqin qilinib, insonlararo munosabatlarning dinamik va jarayonli xarakterini aks ettiradi. Hope va pleasure konseptlarida ham kelajak, harakat va ijobiy baholash bilan bog'liq metaforik tuzilmalar ustuvorlik qiladi.

Ingliz madaniyatida ijobiy his-tuyg'ular konseptual jihatdan shaxsiy muvaffaqiyat, individual erkinlik, o'zini namoyon etish hamda hayotdan qoniqish tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Bu holat ingliz tilidagi emotsional birliklarning ko'pincha individualistik qadriyatlarni ifodalashi, shaxsning ichki holati va subyektiv tajribasiga urg'u berilishi bilan izohlanadi. Natijada, ijobiy emotsiyalar nafaqat ruhiy holat sifatida, balki ijtimoiy va madaniy muvaffaqiyat mezonlari sifatida ham baholanadi.

Biroq mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning aksariyati monolingval xarakterga ega bo'lib, ya'ni asosan ingliz tili materiali doirasida olib borilgan. Natijada, ijobiy his-tuyg'ular konseptlarining boshqa tillar, xususan, tipologik va madaniy jihatdan farqlanuvchi tillar bilan qiyosiy tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu esa ijobiy emotsiyalarning universal va milliy xususiyatlarini to'liq ochib berishga to'sqinlik qiladi hamda qiyosiy-lingvokulturologik tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida ijobiy his-tuyg'ular konseptlarining o'rganilishi

O'zbek tilshunosligida ijobiy his-tuyg'ular masalasi asosan leksik-semantik, frazeologik hamda folklorshunoslik yo'nalishlari doirasida tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda baxt, quvonch, muhabbat, shodlik kabi ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi birliklarning semantik xususiyatlari, ularning sinonimik qatori, obrazli-ifodaviy imkoniyatlari hamda badiiy va og'zaki nutqda qo'llanish jihatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, maqol, matal, doston va xalq qo'shiqlari materialida ijobiy his-tuyg'ularning lisoniy ifodasi milliy madaniyat va an'analar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan.

Ilmiy izlanishlarda mazkur birliklar ko'pincha o'zbek xalqining milliy mentaliteti, oila muqaddasligi, qarindoshlik rishtalari, jamoaviylik va hamjihatlik kabi ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan chambarchas aloqada talqin etiladi. Jumladan, muhabbat konsepti nafaqat shaxsiy tuyg'u, balki oilaviy sadoqat va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq qadriyat sifatida izohlanadi; baxt va quvonch esa ko'pincha farzand, tinchlik, barqarorlik va jamoa farovonligi bilan birga tasvirlanadi. Bu holat o'zbek tilida ijobiy his-tuyg'ularning ko'proq kollektiv ong va ijtimoiy uyg'unlik bilan bog'liq holda konseptuallashtirilishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida emotsional konseptlarning lingvomadaniy modellashirilishi, ya'ni ularning kognitiv tuzilishi, konseptual qatlamlari va metaforik modellari tizimli tarzda tadqiq etilishi yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Xususan, ijobiy his-tuyg'ular konseptlarini boshqa tillar, jumladan ingliz tili bilan qiyosiy-lingvokulturologik jihatdan o'rganish masalasi kam yoritilgan. Bu esa o'zbek va ingliz tillarida ijobiy emotsiyalarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlash, ularning madaniy talqinidagi o'xshash va farqli jihatlarni ochib berish zaruratini yuzaga keltiradi hamda mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Qiyosiy tadqiqotlar holati

Ingliz va o'zbek tillarida ijobiy his-tuyg'ularni ifodalovchi konseptlarni qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunga qadar son jihatidan nisbatan kamligi bilan ajralib turadi. Mavjud ishlarning aksariyatida mazkur

konseptlar alohida-alohida tillar doirasida tahlil qilingan bo'lib, ularning qiyosiy aspektidagi tadqiqi ikkinchi darajali masala sifatida qolib ketgan. Natijada, ijobiy emotsiyalarning ikki xil til va madaniy makondagi konseptual tuzilishi hamda lisoniy ifodalanish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Bundan tashqari, tarjima nazariyasi va amaliyoti hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida yuzaga keladigan konseptual tafovutlarni aniqlash masalalari ham yetarlicha e'tibordan chetda qolgan. Ijobiy his-tuyg'ularni ifodalovchi birliklarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimasida yuzaga keladigan semantik siljishlar, baholovchi komponentlarning o'zgarishi va madaniy moslashuv jarayonlari chuqur tadqiq etilmagan. Shu sababli, ingliz va o'zbek tillarida ijobiy his-tuyg'ular konseptlarini qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan kompleks o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi hamda ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkazilgan ilmiy manbalar tahlili natijalariga ko'ra, ijobiy his-tuyg'ularni ifodalovchi konseptlar ingliz tilshunosligida nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha keng qamrovda o'rganilganligi, mazkur yo'nalishda kognitiv-semantik, konseptual-metaforik hamda lingvokulturologik yondashuvlar samarali qo'llanilganligi aniqlanadi. Ingliz tilidagi tadqiqotlarda ijobiy emotsiyalarning konseptual tuzilishi, ularning metaforik modellashirilishi va madaniy talqini izchil tahlil qilingan. Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o'zbek tillarida ijobiy his-tuyg'ularni ifodalovchi konseptlarni qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish zarurati yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv ikki til doirasida ijobiy emotsiyalarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlash, ularning madaniy asoslarini ochib berish hamda tarjima va madaniyatlararo muloqot jarayonida yuzaga keladigan konseptual tafovutlarni izohlash imkonini beradi. Mazkur holat tanlangan mavzuning ilmiy dolzarbligini belgilabgina qolmay, balki uning magistrlik dissertatsiyasi doirasida tadqiq etilishi nazariy va amaliy jihatdan muhim ekanligini asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — London: Routledge, 2011.
2. Izard C. The Psychology of Emotions. — New York: Plenum Press, 1991.
3. Karasik V. I. Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. — Volgograd: Peremena, 2002.
4. Kövecses Z. Emotion Concepts. — New York: Springer, 1990.
5. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
6. Kubryakova E. S. Yazyk i znaniye: Na puti polucheniya znaniy o yazyke. — Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury, 2004.
7. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. — Chicago: University of Chicago Press, 1987.

8. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
9. Mahmudov N. *Til va madaniyat*. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
10. Maslova V. A. *Lingvokulturologiya*. — Moskva: Akademiya, 2001.
11. Newmark P. *A Textbook of Translation*. — New York: Prentice Hall, 1988.
12. Nida E. *Language, Culture, and Translating*. — Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 1993.
13. Nurmonov A. *Tilshunoslik nazariyasi*. — Toshkent: Fan, 2001.
14. Qilichev E. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1998.
15. Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
16. Stepanov Yu. S. *Konstanty: Slovar russkoy kultury*. — Moskva: Akademicheskij projekt, 2004.
17. Telia V. N. *Russkaya frazeologiya: semanticheskij, pragmaticheskij i lingvokulturologicheskij aspekty*. — Moskva: Yazyki russkoy kultury, 1996.
18. Wierzbicka A. *Emotions across Languages and Cultures*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
19. Wierzbicka A. *Understanding Cultures through Their Key Words*. — Oxford: Oxford University Press, 1997.
20. Yoldoshev B. *O‘zbek tilida frazeologik birliklar va ularning lingvomadaniy xususiyatlari*. — Toshkent: Fan, 2008.